



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2021- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 375	Qo'rg'on tepa t.	285
Andijon t.	543	Oltinko'l t.	284
Shahrixon t.	518	Buloq boshi t.	275
Asaka t.	506	Paxtaobod t.	271
Baliqchi t.	463	Izboskan t.	257
Xo'jaobod t.	356	Bo'ston t.	235
Jalaquduq t.	305	Xonobod sh.	171
Marhamat t.	289	Ulug'nor t.	127


Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 6 260 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 710 taga kamaydi va 89,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Andijon tumani (113 ta), Baliqchi (60 ta), Xonobod shahri (56 ta), Xo'jaobod (21 ta) va Shahrixon (16 ta) tumanida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 755
114,9 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9 686
116,8 %

Sanoat

3 423
112,4 %

Qurilish

12 235
122,7 %

Savdo

1 414
108,0 %

Tashish va saqlash

2 031
114,4 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

637
116,5 %

Axborot va aloqa

1 015
117,2 %

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

9 051
112,4 %

Boshqa turlar

Hududlar kesimida


Andijon sh.	13 556
Asaka t.	3 931
Shahrixon t.	2 964
Andijon t.	2 807
Baliqchi t.	2 160
Qo'rg'ontepa t.	2 093
Oltinko'l t.	1 993
Izboskan t.	1 903
Marhamat t.	1 789
Xo'jaobod t.	1 693
Paxtaobod t.	1 687
Jalaquduq t.	1 676
Buloqboshi t.	1 282
Bo'ston t.	1 091
Xonobod sh.	833
Ulug'nor t.	789

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (36 256 ta) nisbatan 5 991 taga oshib, o'sish sur'ati 116,5 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Andijon shahri (1 542 ta), Asaka (550 ta), Andijon (532 ta), Shahrixon (405 ta) va Baliqchi (362 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasida – 2 265 ta, sanoat – 1 395 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 358 taga to'g'ri kelib, axborot va aloqa sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 90 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2021- yilning
2020- yilga
nisbati2021- yilning
2019- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 307
Asaka t.	478
Andijon t.	457
Baliqchi t.	453
Shahrixon t.	373
Xo'jaobod t.	341
Paxtaobod t.	262
Jalaquduq t.	249
Izboskan t.	248
Qo'rg'ontepa t.	241
Marhamat t.	224
Oltinko'l t.	219
Buloqboshi t.	199
Bo'ston t.	174
Xonobod sh.	143
Ulug'nor t.	106

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 50 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Baliqchi tumanida (57 taga), Andijon tumanida (35 taga), Xonobod shahrida (31 taga) va Xo'jaobod tumanida (14 taga) sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish axborot va aloqa (21 taga) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida (10 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 36 772 tasi yoki 87,0 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117,2 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdo (122,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (118,3 foiz), sanoat (116,8 foiz), axborot va aloqa (116,8 foiz) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (115,1 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Andijon (125,4 foiz), Baliqchi (123,7 foiz), Xojaobod (123,4 foiz), Xonobod shahri (122,1 foiz) va Jalaquduq (122,0 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	12 407
Asaka t.	3 506
Andijon t.	2 505
Shahrixon t.	2 480
Baliqchi t.	1 850
Qo'rg'ontepa t.	1 750
Oltinko'l t.	1 677
Izboskan t.	1 634
Marhamat t.	1 489
Xo'jaobod t.	1 465
Paxtaobod t.	1 421
Jalaquduq t.	1 347
Buloqboshi t.	1 020
Bo'ston t.	875
Xonobod sh.	725
Ulug'nor t.	621


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 302	Izboskan t.	247
Asaka t.	478	Qo'rg'on tepa t.	241
Andijon t.	456	Marhamat t.	222
Baliqchi t.	453	Oltinko'l t.	219
Shahrixon t.	372	Buloqboshi t.	199
Xo'jaobod t.	340	Bo'ston t.	174
Paxtaobod t.	262	Xonobod sh.	143
Jalaquduq t.	249	Ulug'nor	106

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  402	Sanoat  1 543	Qurilish  379
Savdo  2 147	Tashish va saqlash  127	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  247
Axborot va aloqa  127	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish  137	Boshqa turlar  354

Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.


Pandemiya davrida tadbirkorlik subyektlari davlat iqtisodiyotining barqaror ishlashiga munosib hissasini qo'shib kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

2021-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining o'sish sur'ati 2017-yilning mos davriga nisbatan 2,6 martaga oshgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	12 344	Marhamat t.	1 484
Asaka t.	3 498	Xo'jaobod t.	1 460
Andijon t.	2 494	Paxtaobod t.	1 417
Shahrixon t.	2 475	Jalaquduq t.	1 344
Baliqchi t.	1 848	Buloqboshi t.	1 019
Qo'rg'ontepa t.	1 745	Bo'ston t.	872
Oltinko'l t.	1 672	Xonobod sh.	721
Izboskan t.	1 631	Ulug'nor t.	618

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 5 412 taga ko'paygan va 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sdi va o'sish sur'ati 117,3 foizni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdoda (122,9 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (118,3 foiz), sanoatda (116,9 foiz) hamda axborot va aloqa (116,8 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Andijon (125,5 foiz), Baliqchi (123,9 foiz), Xo'jaobod (123,4 foiz), Xonobod shahri (122,2 foiz), Jalaquduq (122,1 foiz) va Bo'ston (121,6 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

2- bo'lim. Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

2 565

17

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura


173

Asaka t.	404
Andijon sh.	266
Qo'rg'ontepa t.	224
Andijon t.	219
Izboskan t.	212
Shahrixon t.	209
Paxtaobod t.	196
Baliqchi t.	180
Marhamat t.	143
Oltinko'l t.	139
Ulug'nor t.	123
Jalaquduq t.	121
Bo'ston t.	112
Xo'jaobod t.	86
Buloqboshi t.	84
Xonobod sh.	37


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyot tarmoqlari orasidagi eng kam zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlardan biridir.

Hukumatimiz tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor sababli, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davriga nisbatan qariyb bir yarim baravar ko'paydi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan esa 358 taga oshgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 342
Asaka t.	1 013
Andijon t.	797
Shahrixon t.	717
Xo'jaobod t.	524
Oltinko'l t.	443
Baliqchi t.	395
Qo'rg'ontepa t.	392
Jalaquduq t.	350
Izboskan t.	330
Marhamat t.	301
Buloqboshi t.	283
Paxtaobod t.	279
Bo'ston t.	219
Xonobod sh.	182
Ulug'nor t.	119

9 328

117,1 %

Ishlab chiqarish sanoati

147

123,5 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

37

77,1 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

174


112,3 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 176,4 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,3 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 117,1 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 123,5 %), 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (77,1 % ni) va 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 112,3 %) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 122
110,5 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

269
113,5 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

1 032
116,2 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 19,8 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qargalanda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,5 foizga oshgan;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 7,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,1 foiz ulushni va 116,2 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 620
Asaka t.	1 076
Shahrixon t.	805
Baliqchi t.	781
Andijon t.	751
Oltinko'l t.	675
Qo'rg'on tepa t.	669
Izboskan t.	635
Paxtaobod t.	601
Jalaquduq t.	565
Xo'jaobod t.	519
Marhamat t.	513
Buloqboshi t.	339
Bo'ston t.	268
Xonobod sh.	214
Ulug'nor t.	204

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

7 945
121,4 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 413
125,6 %


Avtomobil va
mototsikllarning
ulgurji va chakana
savdosi va ularni
ta'mirlash

877
124,0 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 64,9 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 21,4 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 27,9 foiz ulushni tashkil etib, 25,6 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,2 foiz ulushni tashkil etib, 24,0 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	839
Asaka t.	181
Andijon t.	138
Xonobod sh.	110
Shahrixon t.	106
Qo'rg'ontepa t.	84
Oltinko'l t.	78
Ulug'nor t.	73
Izboskan t.	62
Paxtaobod t.	62
Baliqchi t.	59
Buloqboshi	55
Jalaquduq t.	54
Xo'jaobod t.	52
Marhamat t.	42
Bo'ston t.	36

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 28,5 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,8 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,1 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	246
Asaka t.	52
Shahrixon t.	48
Baliqchi t.	41
Marhamat t.	38
Xo'jaobod t.	37
Qo'rg'ontepa t.	35
Buloqboshi t.	32
Andijon t.	22
Oltinko'l t.	21
Jalaquduq t.	17
Izboskan t.	15
Paxtaobod t.	14
Xonobod sh.	9
Ulug'nor t.	6
Bo'ston t.	4



Nashriyotchilik faoliyati



Kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 12,4 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 21,5 foizga oshgan.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,1 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 17,6 foizga o'sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 40,5 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 13,7 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	369
Asaka t.	87
Shahrixon t.	83
Andijon t.	65
Izboskan t.	57
Baliqchi t.	49
Marhamat t.	46
Qo'rg'ontepa t.	43
Oltinko'l t.	41
Xo'jaobod t.	40
Paxtaobod t.	38
Jalaquduq t.	35
Buloqboshi t.	34
Xonobod sh.	15
Bo'ston t.	8
Ulug'nor t.	5

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

988
117,3 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

20
117,6 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


7
100,0 %

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,3 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 17,3 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 2,0 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,6 foizni tashkil etgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	605
Asaka t.	133
Andijon t.	91
Shahrixon t.	74
Qo'rg'ontepa t.	68
Baliqchi t.	57
Oltinko'l t.	52
Izboskan t.	52
Marhamat t.	48
Xo'jaobod t.	45
Paxtaobod t.	45
Jalaquduq t.	39
Buloqboshi t.	38
Bo'ston t.	37
Ulug'nor t.	15
Xonobod sh.	15

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 059

109,5 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

329

102,5 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

25

125,0 %

Havo transporti

1

100,0 %

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,5 foizga, ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 2,5 foizga, pochta va kuryerlik yo'nalishida 25,0 foizga oshgan. Havo transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni tashkil etgan.


Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni




Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



2021-yilning
2020-yilga
nisbati

2021-yilning
2019-yilga
nisbati

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	1 197	Izboskan t.	224
Baliqchi t.	410	Marhamat t.	208
Asaka t.	378	Oltinko'l t.	201
Andijon t.	366	Qo'rg'ontepa t.	181
Xo'jaobod t.	298	Buloqboshi t.	181
Shahrixon t.	297	Xonobod sh.	135
Paxtaobod t.	254	Ulug'nor t.	103
Jalaquduq t.	235	Bo'ston t.	92

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1 884
119,5 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 160
119,5 %



Sanoat

2 933
115,0 %



Qurilish

9 407
126,8 %



Savdo

1 292
108,8 %



Tashish va saqlash

1 350
118,0 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

476
131,1 %



Axborot va aloqa

752
122,3 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 765
115,4 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 689

Asaka t. 2 093

Andijon t. 1 943

Shahrixon t. 1 908

Izboskan t. 1 391

Baliqchi t. 1 344

Oltinko'l t. 1 299

Xo'jaobod t. 1 283

Qo'rg'ontepa t. 1 218

Marhamat t. 1 194

Paxtaobod t. 1 162

Jalaquduq t. 1 130

Buloqboshi t. 781

Xonobod sh. 575

Ulug'nor t. 521

Bo'ston t. 488


2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 36 772 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 28 019 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda, o'sish axborot va aloqa (131,1 foiz), savdo (126,8 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (122,3 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (119,5 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (131,6 foiz), Andijon (128,8 foiz), Xonobod shahri (128,6 foiz), Jalaquduq (126,7 foiz) va Paxtaobod (126,3 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 672	Oltinko'l t.	206
Asaka t.	826	Jalaquduq t.	167
Baliqchi t.	424	Xo'jaobod t.	154
Shahrixon t.	324	Izboskan t.	125
Qo'rg'ontepa t.	317	Buloqboshi t.	123
Andijon t.	250	Bo'ston t.	97
Marhamat t.	249	Xonobod sh.	82
Paxtaobod t.	204	Ulug'nor t.	55


2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 3,6 foizga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'sish savdoda – 107,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 104,5 foiz, sanoatda – 102,5 foiz hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 100,6 foizni tashkil etgan. Hududlar kesimida esa Xo'jaobod (118,5 foiz), Andijon (107,3 foiz), Asaka (105,8 foiz), Qo'rg'ontepa (105,3 foiz), Shahrixon (103,2 foiz) va Oltinko'l (103,0 foiz) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	822	Izboskan t.	97
Asaka t.	549	Xonobod sh.	55
Andijon t.	289	Baliqchi t.	54
Bo'ston t.	276	Ulug'nor t.	35
Shahrixon t.	229	Jalaquduq t.	35
Qo'rg'ontepa t.	190	Paxtaobod t.	34
Oltinko'l t.	154	Marhamat t.	27
Buloqboshi t.	101	Xo'jaobod t.	12

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2021- yil 1- noyabr holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 959 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 95,5 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 118,8 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qargalanda tashish va saqlash (127,3 foiz), qurilish (123,5 foiz), savdo (121,7 foiz) hamda sanoat (120,2 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (141,8 %), Baliqchi (131,7 %), Jalaquduq (129,6 %), Shahrixon (129,4 %), Andijon (127,3 %) va Bo'ston (126,6 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 381 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 113,7 foizga, ya'ni 46 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdo (132,6 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (120,0 foiz), qurilish (119,0 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (111,1 foiz) hamda sanoat (108,9 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (185,7 foiz), Buloqboshi (154,5 foiz), Jalaquduq (136,4 foiz), Paxtaobod (128,6 foiz), Andijon (123,1 foiz) hamda Asaka (121,1 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	152
Andijon t.	32
Shahrixon t.	27
Asaka t.	23
Oltinko'l t.	20
Xonobod sh.	19
Buloqboshi t.	17
Xo'jaobod t.	15
Jalaquduq t.	15
Marhamat t.	14
Qo'rg'ontepa t.	13
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	7
Bo'ston t.	7
Ulug'nor t.	6
Izboskan t.	5

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

23 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	208 Sanoat	25 Qurilish
57 Savdo	4 Tashish va saqlash	10 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
4 Axborot va aloqa	6 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	44 Boshqa turlar

2021

2020



Rossiya



AQSH




Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iz R.



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 265 tasi qo'shma korxonalar, 116 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275– son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

